

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

— 2-2023 —

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

B.Shermuhammadov, B.Qurbonova	
Hamkorlikdagi faoliyat treningini o'tkazish usullari.....	9
T.Egamberdieva, N.Gafurova	
Yangi O'zbekistonda xotin-qizlarning ijtimoiy faolligini oshirishda gender tengligi masalalari	13
N.O'rinova	
Bo'lajak o'qituvchilarni tyutorlik faoliyatiga tayyorlash texnologiyalari	17
I.Siddiqov	
Aralash ta'lim – bo'lajak tarixchilarda informatsion-analitik kompetentlikni rivojlantirishning samarali vositasi sifatida	21
M.Barakayev, X.O'rinov	
Matematika o'qituvchisi tayyorlash metodik sistemasining nazariy jihatlarini.....	26
X.Umarov	
O'quvchilarda jinoyat va jazo tushunchalariga doir bilimlarni rivojlantirish tuzilmasi va komponentlari	31
N.Xodjibolayeva	
Talabalarda ekologik kompetentlikni shakllantirishda Abdurauf Fitratning ijtimoiy-ekologik qarashlarining ahamiyati	39
S.Uraimov	
Kichik maktab yoshidagi bolalarning jismoniy rivojlanganlik ko'rsatkichlarining pedagogik tahlili	44
D.Malikova	
Ta'lim makonida madaniy muhitning tarixiy omillari.....	48
A.G'ofurov	
Bo'lajak jismoniy tarbiya fani o'qituvchilarining sport turizmiga doir bilimlarini rivojlantirish tizimi.....	51
I.Sharofutdinov	
Ta'limni axborotlashtirish sharoitida bo'lajak pedagoglarning akmeologik kompetentligini rivojlantirish	59
J.Qurbonov	
Bo'lajak o'qituvchilarda intellektual madaniyatni rivojlantirishning integrativ ta'lim texnologiyalari.....	65
M.G'ofurova	
Boshlang'ich sinf matematika darslarida tadqiqot metodlarini qo'llashning samaralari	69
G.Maxsudova	
O'quvchilarda ekosavodxonlikni shakllantirishning rivojlantirishda milliy ma'naviy qadriyatlarining ahamiyati	74
V.G'aniyeva	
O'yinning bola faoliyati sifatidagi mohiyati va o'ziga xosligi	78
Sh.Karimova	
Talabalarning tadbirkorlik ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan mustaqil ishlarni tashkil etishning lokal-modulli texnologiyasi	82
F.Raximova	
Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim orqali bo'lajak tarbiyachilar ijodiy faoliyatini rivojlantirish tizimini takomillashtirish muammolari	85
D.Rafikova, Z.Ibroximova	
Ta'limni modernizatsiyalash jarayonida smart texnologiyalardan foydalanishning istiqbollari va muammolari.....	88
U.Abduraximova	
Bo'lajak tarjimonlarning lingvomadaniy va kommunikativ kompetentligini rivojlantirish pedagogik-psixologik asoslari	92

TALABALARDA EKOLOGIK KOMPETENTLIKNI SHAKLLANTIRISHDA ABDURAUUF FITRATNING IJTIMOY-EKOLOGIK QARASHLAR AHAMIYATI

ЗНАЧЕНИЕ СОЦИАЛЬНО-ЭКОЛОГИЧЕСКИХ ВЗГЛЯДОВ АБДУРАУФА ФИТРАТА В ФОРМИРОВАНИИ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ КOMPETENTHOCTИ У СТУДЕНТОВ

THE IMPORTANCE OF THE SOCIO-ENVIRONMENTAL VIEWS OF ABDURAUUF FITRAT IN THE FORMATION OF ENVIRONMENTAL COMPETENCE IN STUDENTS

Xodjibolayeva Nozimaxon Ma'murovna¹

¹Xodjibolayeva Nozimaxon Ma'murovna

– Qo'qon davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti.

Annotatsiya

Ushbu maqolada yoshlarda ekologik kompetentlikni shakllantirishning ijtimoiy-pedagogik zaruriyati, uning bosqichlari, ijtimoiy-pedagogik mazmuni, ekologik kompetentlikni shakllantirishga doir jadid mutafakkirlarining qarashlari va ulardan bugungi kunda ta'lim jarayonida foydalanish asoslari ochib berilgan.

Аннотация

В данной статье раскрывается социально-педагогическая необходимость формирования экологической компетентности у молодежи, ее этапы, социально-педагогическое содержание, взгляды джадидских мыслителей на формирование экологической компетентности и основы их использования в образовательном процессе сегодня.

Abstract

This article reveals the socio-pedagogical necessity of the formation of ecological competence in youth, its stages, socio-pedagogical content, views of Jadid thinkers on the formation of ecological competence and the basics of their use in the educational process today.

Kalit so'zlar: ekologiya, ekologik kompetentlik, ekologik bilim, ekologik madaniyat, ekologik mas'uliyat, ekologik ta'lim, ekologik axloq.

Ключевые слова: экология, экологическая компетентность, экологические знания, экологическая культура, экологическая ответственность, экологическое образование, экологическая этика.

Key words: ecology, ecological competence, ecological knowledge, ecological culture, ecological responsibility, ecological education, ecological ethics.

KIRISH

Mamlakatimizda ekologik kompetentlikni shakllantirish orqali "sog'lom millat - sog'lom kelajak" milliy strategiyasini amalga oshirish ko'zda tutilgan. Shu bois, jamiyatda ekologik vaziyatni sog'lomlashtirish va ekologik kompetentlik ni shakllantirish dolzarb vazifalardan biriga aylandi. Buning uchun "biz jadidchilik harakati, ma'rifatparvar bobolarimiz merosini chuqur o'rganishimiz kerak"[1] ligi, shunday ekan, jadid mutafakkirlarining qarashlari orqali "aholining ekologik kompetentlik ini oshirish haqida jiddiy bosh qotirishimiz zarur"[2] ligi asosiy vazifalardan biriga aylandi.

Falsafiy adabiyotlarda "ekologik muammolarni muvaffaqiyatli hal etib borish nafaqat sotsial-iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy shart-sharoitlarning obyektiv holatiga, shu bilan birga, inson omili, uning ekologik ongi va dunyoqarashining rivojlanganlik darajasi kabi subyektiv omilga ham ko'p jihatdan bog'liq"[3], deb ko'rsatilgan. Shuningdek, ekologik dunyoqarashda shaxsning o'ziga xos ekologik ongi, bilimi hamda ko'nikmasi, tabiat hodisalariga yondashuvining turfa xil ko'rinishlari o'z aksini topganligi uchun, ba'zi olimlar "ekologik ongga ekologik ijtimoiy munosabatlarning in'ikosi sifatida qaraydilar"[4]. Ekologik kompetentlikning darajalari ekologik munosabatlarning xususiyatlari va ularning rivojlanish dinamikasiga mos keladi. Lekin, "o'z navbatida ekologik munosabatlar ham ekologik ongning moddiylashuv jarayonidir"[4]. Ammo bu moddiylashuv jarayoni obyektiv reallikda kishilarning atrof-muhitga faol ta'siriga nisbatan muayyan darajada orqada qolayotganligini e'tirof etish zarur. Bu masalada Y.A.Andreyeva ta'kidlaganidek, "Kishilarning atrof-tabiiy muhitni o'zlashtirishi, ularning ekologik ongi o'sishiga nisbatan ilgarilab ketmoqda"[5].

TADQIQOT MATERIALLARI VA METODOLOGIYASI

Ekologik ta'lim-tarbiya va madaniyat masalalari, fanlararo integrallash kabi tadqiqotlar E.O.Turdiqulov, Sh.Avazov, N.O'.Nishonova, L.Xudoyberdiyev, M.Mirboboyev, M.Nishonboyeva, A.T.Hayitov, M.K.Hoshimova, B.Qulto'rayev, I.Ismatov, V.N.Sattorov, M.M.Ibodullayeva, Y.Karimov, M.A.Yuldashev, G.Sultonova, N.Ashurova, M.B.Rahimqulova, Shanasirova.L.T, N.M.Egamberdiyeva, M.Rahmatullayeva, X.Rahmatova, P.U.Berdanova tadqiqotlarida aks etadi.

Ekologik ta'limning nazariy va fundamental qismi, modellari, texnologiyalari, aksiologik jihatlarini bo'yicha esa ko'plab tadqiqotchilar ish olib borishgan. Ularga I.D. Zverev, A.N. Zaxlebniy, S.N.Glazachev, L.V. Moiseyeva, I.N.Ponomareva, G.P.Sikorskaya, V.P. Solomin, O.G.Rogovaya tadqiqot ishlarini misol qilib olishimiz mumkin. Ekologik psixologiya va pedagogika sohasida Rossiya tadqiqotchilardan esa: S.D. Deryabo, A.V. Gagarin, I.D. Zverev, L.V. Moiseyeva, V.I. Panov, V.A. Yasvin, O'zbekiston tadqiqotchilaridan A.S.Medjitova o'rgangan.

Xorijiy olimlardan Laleshwar Nand, Nina Roczen, Haywood Ian, Za'rour George ekologik bilimlarni pedagogik samaradorligi va didaktik mohiyatini ochib bergan bo'lsa, Thomas E.Lovejoy, Eugene Pleasants Odum, F.Stuart Chapin kabi ekolog olimlar ilmiy izlanishlari va tadqiqotlari dunyo ekologiyasining nazariy va amaliy jihatdan rivojlanishiga xizmat qildi.

TADQIQOT NATIJALARI

Inson tabiatga nisbatan o'z munosabatlarining oqibatlarini anglab olsa va antropogen ta'sir tufayli tabiatning qay darajada o'zgarishga uchraganligini aniqlab olsa, mavjud ekologik vaziyatga ko'rsatayotgan ta'sirlarini ko'r-ko'rona emas, ongli ravishda, ta'sir obyektlarining va vaziyatlarning ko'plab parametrlarini hisobga olgan holda amalga oshirgan bo'lur edi. Chunki "har qanday ekologik vaziyat obyektiv ravishda biosfera ichki muvozanatlarining buzilishidan, ya'ni tabiatga antropogen, texnogen ta'sirlar natijasida yuzaga keladi"[6].

Tabiatga bag'ishlangan san'at asarlarini o'rganish, sayohat, sayr, mazkur yo'nalishdagi an'anaviy faoliyatlardir. Olamdagi go'zallikni ko'ra bilish, his etish lozim. O'qituvchilar e'tiborni tabiat boyliklariga, uning shaklidagi mukammalliklarga qaratish, sayr, ekskursiya hamda maktab tajribaviy yer maydonchasida ishlash paytida nafasat, tabiatni sevish ehtiyojigina bo'lmay, shuningdek, unga ongli munosabatda bo'lishdan ham iboratligini o'quvchilarga tushuntirib borishlari lozim[7].

Jadidchilik harakati yuzaga kelgan davrda ekologiya atamasi hali iste'molga kirib rusum bo'lmagan, butun dunyo mamlakatlari muammolarini yaxlit bir hodisa deb talqin etishga undagan globallashtirish jarayoni yuzaga chiqmagan edi. Lekin real hayotda hozir ijtimoiy ekologiya deb atalayotgan dolzarb masalalar mavjud edi. Jadidchilik harakatining dastlabki davrida xalqni ma'rifatli va madaniyatli qilish pozitsiyasida bo'lgan bo'lsa, keyingi bosqichlarida ijtimoiy-siyosiy sharoit ko'proq siyosiy kurash tomon burib yubordi. Jadidchilikning keyingi bosqichlari yangicha ko'rinish bera boshladi. Ma'lumki, jadidchilikdagi siyosiy dunyoqarashlik o'zgarishlar mahalliy yoshlarning Germaniya va Turkiya kabi davlatlarga borib o'qib kelishi natijasida o'zgardi. Ularning Turkistonga qaytib kelishi jadidchilik ta'limotini siyosiy kurashga aylantirdi va asosiy pozitsiyasini mustaqillik uchun kurash va mamlakatni rivojlantirishga qaratilgan edi. O'z maqsadlarida boshqaruv tizimini isloh qilish soliqlarni kamaytirish, dehqonlar, hunarmandlar turmushini yengillashtirish, amaldorlar o'zboshimchaligini cheklashda jadidlarning aralashuvini talab qila boshladi. Bunday siyosiy talablar ijtimoiy o'zgarishni istagan xalqqa ma'qul keldi. Keyingi davrga kelib jadidchilik harakatida bo'linish sodir bo'la boshladi. Bu eski tarzda jadidlar va yangicha ko'rinishdagi ijtimoiy-siyosiy talablar bilan chiqqan jadidlarga ajraldi. Og'ir ijtimoiy hayot sharoitida turli yo'llar bilan ijtimoiy-siyosiy kurash olib borib adolat uchun astoydil kurash olib borish ularning asosiy maqsadiga aylangan edi[8].

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, biz tanlagan muammo - ekologik ong rivojida jadidchilikning o'rni masalasiga nima uchundir hozirga qadar jiddiy ahamiyat berilmay kelindi. Holbuki, keyingi yillarda e'lon qilingan tadqiqotlarga qaraganda, XX asr boshlarida maydonga kelgan Turkiston jadidchiligining faoliyat doirasi asta sekin kengaya borib, ular garchi dastlab ma'rifatparvarlar sifatida ish boshlagan bo'lsalar ham, ko'p o'tmasdan ijtimoiy hayotning barcha muhim sohalariga doir ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy qarashlarini e'lon qila boshladilar.

MUHOKAMA

Tarixiy taraqqiyot davomida insoniyat tabiatni sevish, uni asrab-avaylashdan iborat ma'naviy-axloqiy kamolotga da'vat etib kelgan. Jumladan, umumjahon ekologik ma'naviy tafakkur rivojiga Markaziy Osiyodan yetishib chiqqan buyuk mutafakkirlar dunyoqarashini ifodalagan ekologik mavzudagi ma'naviy merosi ham bunga ulkan hissa bo'lib qo'shilganligi tarixiy haqiqatdir.

PEDAGOGIKA

Ayniqsa, Mahmud Koshg'ariy, Abu Ali ibn Sino, Nosir Xisrav, Ahmad Yassaviy, Yusuf Xos Hojib, Umar Xayyom, Abdurahmon Jomiy, Lutfiy, Alisher Navoiy, Bobur, Mashrab, Maxmur, Gulxaniy, Muqimiy, Furqat va Ogahiy kabi yuzlab Sharq mutafakkirlari adabiy asarlaridagi teran ekologik-falsafiy ta'limotlarining umuminsoniyat ma'naviy merosi sifatida e'tirof etilishi fikrimiz dalilidir.

Ijtimoiy rivojlanish va millatni ma'rifatli qilish borasidagi harakatlarda Turkiston jadidlari bo'lgan Siddiqiy-Ajziy, Mahmudxo'ja Behbudiy, Xoji Muin, Sayid Rizo Alizoda, Vadud Mahmud, Ismatulla Rahmatullayev Abdulhamid Majidiy kabi bir qancha ziyolilar jonbozlik ko'rsatdilar. Xususan, jadid namoyandalardan Mahmudxo'ja Behbudiy, bolalarga diniy va dunyoviy ilm berish bilan birga, millat farzandlarini zamonaviy ilm olish uchun taraqqiy topgan mamlakatlardagi o'quv yurtlariga yuborish kerak, degan ijtimoiy va siyosiy jihatdan o'ta muhim masalani o'rta tashladi. Jadidlarning yangi milliy davlatchilikni tashkil etish, maktab-maorif va o'qish-o'qitish, tarixiy va madaniy-ma'naviy merosga yangicha munosabat ruhida maqola va tadqiqotlari bilan birga, Turkiston xalqlariga ajdodlari tomonidan meros bo'lib qolgan ona Vatan, uning bebaho suv va tuprog'i, musaffo havosi, tabiiy boyliklarini asrab-avaylashga doir fikr-mulohazalari ifoda etilgan ilmiy-publiksistik, pedagogik, badiiy asarlar ham yaratildi. Bu yo'nalishdagi asarlar, tabiiyki, o'tgan asr boshlarida boshlangan milliy uyg'onish jarayonida ma'rifatchilik harakatining nechog'lik katta va salmoqli kuch sifatida maydonga chiqqanini ko'rsatadi. Jadid namoyondalari o'z xalqining ziyoli va fidoyi farzandlari sifatida ijtimoiy hayotda tobora markaziy o'rinni ishg'ol qilayotgan "ruslashtirish" siyosatiga, shuningdek, Turkiston o'lkasi uchun ilgari sinalmagan texnikaviy taraqqiyot, yangicha ishlab chiqarish usullari va vositalarining jamiyat va tabiatga ta'siri, bu ta'sirning ijobiy va salbiy oqibatlari, texnik taraqqiyot va uning istiqboli, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish singari davr kun tartibiga ko'targan dolzarb masalalarga befarq qarab turmadilar.

Insonning ekologik tafakkur tarzi u yashab turgan mintaqaning tabiiy-geografik shart-sharoitiga, turmush maromiga va mavjud jamiyat kishilarining tabiat to'g'risidagi dunyoqarashi hamda unga bo'lgan munosabatlari bilan uzviy bog'liqdir. Jadidchilik harakati va uning yetuk vakillari tomonidan atrof-muhit, tabiatga oqilona munosabatni shakllantirish, tabiatni asrashga doir qarashlari, milliy tabiat boyliklaridan oqilona foydalanish, avaylab-asrash o'rniga uni talon-toroj etish siyosati qo'llangani haqli ravishda qoralanganini alohida ta'kidlash lozim. Mustamlakachilar yuritgan "tashib ketish" siyosatining halokatli oqibatlari, atrof-muhitga yetkazilayotgan zararlar, bir kun kelib uning asoratlarini bartaraf etish mushkulligi, yer-suv zaxiralaridan kolonial maqsadlarda foydalanish tendensiyasi jadidlar nazaridan chetda qolmagan. Masalan, 1903-yilda "Turkiston viloyatining gazeta" sahifalarida yozilishicha, paxta maydonlarining yildan-yilga kengayib borishi natijasida paxta monokulturasini sodir bo'lgan. Yem-xashakning tanqisligi oqibatida chorvachilik inqirozga uchrab, chorva mollarining soni yildan-yilga kamayib, dehqonlar qoramollarga ozuqa yetishmasligidan qishga yaqin vaqtda ularni sotishga va bahorning boshlarida chorva mollari sotib olishga majbur bo'lganlar. O'sha davrga oid arxiv materiallarining tasdiqlashicha, bu davrda yem-xashak ekinlarining narxi 100 foizga hamda chorva mollarining narxi 50 foizga oshib ketgan[9]. Bu ham tabiatga nooqilona munosabatning mahsuli va atrof-muhitni asrab avaylamaslik natijasi ekanligi ma'lum bo'ladi.

Jadid mutafakkirlari tomonidan milliy matbuot sahifalarida tuproq unumdorligini oshirish uchun ko'rilgan choralar keng muhokama qilingan. Xususan, "Sadoi Turkiston" gazetasida yerning hosildorligini oshirishni istagan ziroatchilar o'z bilimlarini oshirishlari, maxsus kitoblar mutolaa qilishlari lozimligi ta'kidlanadi, xususan, Rauf Muzaffarzodaning "Sadoi Turkiston" da 1914 yildagi 14-sonida bosilgan "Tuproq nadur?" maqolasida "Yerning o'stirish quvvatini orttirmoq uchun solinadigan narsalar bordur" deb ta'kidlanadi[9]. Umuman, tuproq unumdorligini oshirish uchun o'g'itlar sifatini yaxshilash, tabiiy chiqindilar bilan birga sun'iy o'g'itlarni ham qo'llashga harakat qilingani bo'yicha tajribalar o'tkazilgani ma'lum bo'ladi. Albatta, jadidchilik oldinga surgan asosiy g'oyalari ma'rifatparvarlik va milliy istiqbol bo'lib, ular bu g'oyalarni ro'yobga chiqarish uchun fidokorlarcha kurashuvchi insonlar ekanliklarini ham amalda, ham ilm-fanda va madaniy bahslarda ko'rsata oldilar. Ular yashagan davrda ekologik madaniyat masalalari jiddiy tus olmagan, tabiat va inson o'rtasidagi ziddiyatlar keskinlashmagan, texnikaviy taraqqiyot ijtimoiy-global muammolarni kun tartibiga qo'yib ulgurmagani edi. Biroq jadid publiksistikasi, adabiyoti va pedagogikasida ekologik tafakkurning XX asr boshlariga xos hukm-xulosalari, yaqin yillarda tabiat bilan inson o'rtasidagi munosabatlarda yuzaga keladigan muammolar to'g'risida muayyan kuzatishlar mavjud. Ogohlikka da'vat kabi jaranglangan bu mulohazalar keyingi tarixiy taraqqiyot bosqichlarida o'z hayotiy tasdig'ini topdi.

Ma'lumki, inson salomatligi tibbiy madaniyatning jamiyatda qanday mavqega egaligi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, bu masala ayni paytda ekologik madaniyat bilan ham uzviy aloqadorlikda yuzaga keladi. Yer, suv tozaligi, havo musaffoligi atrof-muhitning qay darajada yashash uchun yaroqliligini belgilovchi muhim omillardir. Bu jihatdan, jadidlar o'zlari yashagan davrning tibbiy bilimlar sohasini ham o'zgacha ruh va kurashchanlik bilan isloh etishga intilganini kuzatishimiz mumkin. Bu davrda tibbiy madaniyatning asrlar bo'yi davom etib kelgan an'anaviy ko'rinishlari, uslub va usullaridan keng foydalanilganini ta'kidlash lozim. Xalq tabobati yaxshi rivojlangan. Biroq kasalxonalar, davolash maskanlarining kamligi yoki muntazam ishlamasligi, kasalliklar tarqalishining oldin olishga hamda kasallik paydo bo'lishining sabablarini aniqlashga astoydil harakat qilinmasligi oqibatida xalq orasida ayrim yuqumli kasalliklar ko'p odamning yostig'ini qurishiga sababchi bo'lar, chekka qishloqlarda tibbiy madaniyat darajasi birmuncha past edi. Aholiga tibbiy yordam ko'rsatish masalalari, garchi davriy matbuot sahifalarida tez-tez tilga olinsa ham, aslida vaziyat ancha murakkab bo'lgan. Mustamlakachilikning olisni ko'zlab yuritgan siyosatiga ko'ra 1882-yildan boshlab Toshkent shahri va keyinchalik Turkistonning boshqa shaharlarida mahalliy ayollar uchun ambulatoriyalar tashkil etilgan. Yordam so'rab murojaat qilgan ayollar va bolalarga bepul yordam ko'rsatilgan, shuningdek, dorilar, suv muolajalari, oddiy operatsiya va yaralarni bog'lash ishlari uchun ham mablag' olinmagan[9].

Jadid mutafakkirlaridan biri bo'lgan Abdurauf Fitratning 1914-yilda yozilgan "Oila" kitobini yaratishdan maqsadi yanada olijanobroq bo'lgan. Jadidlarning fikricha, jamiyatni va ongni isloh qilish avvalo oiladan boshlanadi. Ya'ni oila asosini to'g'ri qurmasdan, yosh avlodni to'g'ri yo'lda tarbiyalamasdan turib jamiyat islohotidan so'z ochish, uning rivojini taraqqiyot sari yo'naltirish mumkin emas. Fitrat ana shu g'oyani bosh mezon qilib oladi. U yozadi: "Har bir millatning saodati va izzati, albatta, shu xalqning ichki intizomi va totuvligiga bog'liq. Tinchlik va totuvlik esa, shu millat oilalarining intizomiga tayanadi. Qayerda oila munosabati kuchli intizomga tayansa, mamlakat va millat ham shuncha kuchli va muazzam bo'ladi." [10] Muallif bu mulohazalar bilan kifoyalanmay, jamiyatda oila zaruratini chuqur tahlil qiladi. Ikki jinsning ixtiyoriy ittifoqi bo'lgan oilaning inson naslini davom ettirishdagi betakror roli va ahamiyatidan, oila tarixidan so'z ochadi, "... oilaning shakllanishi, ya'ni ahli bayt jamoasi, boshqacha aytganda, oila boshqarishga asos solish Bani Odam madaniyatining asosi", oila saodati va baxti uchun qabul qilingan eng maqbul qonunlar islomiy qonunlar, degan xulosaga keladi" [10].

Fitrat oilaning muvaffaqiyatli hayot kechirishi, oila ittifoqi, undagi er-xotin munosabatlarining ma'naviy-ruhiy xususiyatlari xususida fikr yuritgan ekan, yuzaga keladigan barcha ziddiyat va kelishmovchiliklarning asosiy sababi muhabbatsizlik ekanini ta'kidlaydi.

Muallif mazkur fikrini asoslash maqsadida o'zi yashayotgan davrning muhim ijtimoiy-siyosiy statistik ma'lumotlariga murojaat qiladi, ya'ni 40 million inglizning 400 million hindi va afrikaliklar ustidan hukmronlik qilayotgani, Chin hukumati 400 million aholisi bilan 40 million yaponning hiylanayrang o'yinchog'iga aylangani, 60 million olmonlar ikkita zaif davlat (Avstriya va Turkiya) ni "yonlariga olib" aholisi 750 millionga teng keladigan yetti davlat bilan urush qilayotgani kabi muhim faktlarni keltiradi. "Kishining nazarida ajib va g'aroyib ko'rinadigan bu voqealar, -deydi muallif, -tarbiya ta'siridandir, zero bolalarning tarbiyasi bu farzandni jismonan, fikran va axloqan tarbiya qilib, kamolga yetishtirish demakdir." [10]

Biroq millatdoshlarimiz farzandlarini tarbiyalamoqdalarimi? Xarakterli joyi shundaki, muallif savolni "qanday tarbiyalamoqdalar?" emas, balki "tarbiyalamoqdalarimi?" tarzida qo'yadi va biri biridan keskin xulosalar chiqaradi: "Biz turkistonliklar bolalarimizdan ko'ra mollarimizga yaxshiroq qaraymiz. Eshak va qo'ylarimizni farzandlarimizdan ham ko'proq yaxshi ko'ramiz deb aytmayapman. Yo'q-yo'q, bolalarimiz jonimizdan ham aziz. Ular nazarimizda hammadan suyukli va aziz. Lekin baxtimizga qarshi shuni e'tirof qilish lozimki, shuncha muhabbat va mehrga qaramasdan, eshak va qo'ylarimizdan kamroq tarbiyalaymiz." [10] Fitrat ushbu fikrni atroflicha asoslash maqsadida qiziq bir qiyosiy dalil keltiradi. Uning fikricha, tarbiya deganlari biron-bir narsani asta-sekin kamolga yetkazish bo'lsa, qo'yning kamoli uning semizligi va sog'lomligidir. "Dalil shulkim, kimning uyida moli bo'lsa, tekshirsa ko'radiki, yil davomida uning mollaridan bittasi ham kasal bo'lmagan, ammo farzandi hech bo'lmasa, uch marta xastalikka chalingan. Bas, ma'lum bo'ladi, u kishi molining kasal bo'lmasligiga ko'proq e'tibor berar ekan." [10]

Biroq hammaga ayonki, odam kamoli faqat sog'lik va kuch-quvvatli bo'lishdan iborat emas. Bolaning tarbiyasi doirasiga uning aqlan, jismonan va axloqan sog'lom bo'lish ham kiradi. Ya'ni Fitrat so'zlari bilan aytganda "Odamning jismi, aqli va axloqi turli kasallik va nuqsonlardan uzoq

PEDAGOGIKA

bo'lishi lozim." Lekin bu sanab o'tilgan uch jihatga ko'ra benuqson bo'lgan odamni tarbiyalash osonmi? Muallif mazkur savolga aniq javob topish maqsadida Buxoroi sharif deb maqtovi ko'klarga ko'tarilgan ona shahri ko'chalarida shunday bir tajriba o'tkazadi: uyidan chiqib katta yo'l bilan Devonbegi hovuzining labiga borib, boshqa yo'l bilan uyiga qaytib keladi. Yo'lda o'z ko'zi bilan ko'rgan odamlariga razm soladi. Ularning jismonan sog'ligi, aqli-hushi joyidaligi, axloq-odobiga baho beradi. O'z o'quvchisini ham ana shu g'oyibona sayohatga taklif etgan muallif shunday hikoya qiladi: "Bu sayohatimiz bir soat davom etdi. Ana shu sayohatimiz davomida diqqat qilgan bo'lsangiz, yo'l-yo'lakay o'ttiz-qirqta sil kasal, yigirma-o'ttizta tepakal, o'n-o'n bitta ko'r, soqov, shuncha oqsoq, kamida to'rt-besh shol va pesni uchratdik. Qolganlar sizningcha sog'-salomat edilar, ya'ni har qanday xastalikdan ozod edilar. Lekin mening nazarimda ular ham har xil kasalliklarga chalingan edilar. Ranglari o'chgan, qomatlari egik, tanalari notavon, ikki yuz qadam yo'lni oh-voh bilan bosardilar. Uzoqqa bormaylik, ikkalamiz ham bir soatlik sayohatimiz chog'ida ancha charchadik. Hozir a'zoi badanlarimiz og'rимоqda. Xullas, xalqimizning sog'lig'i shu darajada"[10].

XULOSA

Xulosa qilganda, "bugungi kunda odamlarda ekologik bilimlarning yetarli emasligi, ba'zilar umuman yo'qligi bililib qolmoqda. Ko'pchilik ekologik muammolar mavjudligidan xabardor, ba'zilar kechiktirib bo'lmas qarorlar qabul qilish kerakligini, atrof-muhitni muhofaza qilish yo'lida tub burilish zarurligini talab qilishsa, boshqa toifadagi odamlar buni keragi yo'q deb o'ylashadi."[11] Aynan shu masalada ekologik dunyoqarashning funksional ahamiyati ko'zga tashlanadi. Ya'ni, ekologik muammolarga shunday ziddiyatli munosabatga, kishilar ruhiyatida saqlanib qolayotgan tabiatga nisbatan texnokratik, utilitar, merkantil yondashuv kayfiyatlariga barham berish uchun har bir shaxsda ekologik dunyoqarashni yanada boyitish yo'llari va imkoniyatlarini izlab topish zarur.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Мирзиёев Ш.М. Миллий тикланишдан – миллий юксалиш сари. 4-жилд. –Тошкент.: Ўзбекистон. –Б. 37.
2. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. 1-жилд. – Тошкент.; Ўзбекистон, 2017. Б-592.
3. Жибуль И.Я. Экологические потребности: сущность, динамика, перспектива. Минск: Наука, 1991. -С. 123.
4. Абдуллаев Э. Экологические отношения и экологическое сознание. Тошкент: 1990. –С, 219.
5. Андреева Ю.А. Человек, природа, общество в современной прозе. Москва.: 1981. –С. 47.
6. Исамухамедов Х. Мамашокиров С. Экологиянинг ижтимоий-фалсафий муаммолари. Тошкент: 1999. – Б. 27-28.
7. Азимова С.Т. Талабаларда экологик маданиятни шакллантиришнинг муҳим хусусиятлари. Замонавий таълим / современное образование 2014, 11. –Б. 33.
8. Ашурова Х.С. Самарқанд жадидларининг ижтимоий-сиёсий қарашлари(XX асрнинг биринчи чораги). Фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати -Тошкент: ЎзМУ, 2020. –Б. 13.
9. Шодмонова С. Туркистон тарихи – матбуот кўзгусида, Тошкент: Янги нашр. –Б. 78.
10. Абдурауф Фитрат. Оила. Тошкент:Маънавият, 2000, -Б. 8.
11. Ашрапов М. Экологик дунёқараш. //Ўзбекистон экология хабарномаси 2005, №3, (54), -Б. 29.